



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 26-mart, seshanba,
37 (23.914)-son

**KUN
HIKMATI**

Inson yerga
egallik qilolmaydi.
Chunki u
Yaratgandan
yashash uchun
ijaraga berilgan
maskan

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz

<https://www.facebook.com/zarnews.uz>

[@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

https://twitter.com/zarnews_uz

MAHALLA FIDOYILARI

Prezidentimizning shu yil 20-martdagi farmoniga ko'ra, mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh yurtdoshlarimiz davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

Jumladan, viloyatimizdan Paxtachi tumanidagi "Qarnabota" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Uchqun Begmatov "Do'stlik" ordeni bilan, Kattaqo'rg'on tumanidagi "Jizmon" oilaviy shifokorlik punkting tibbiy brigada feldsheri Nuridin Norbekov II darajali «Salomatlik» ordeni bilan, Nurobod tumanidagi «Arabota» mahalla fuqarolar yig'ini hokim yordamchisi Gavhar Isayeva "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.



Viloyat hokimligida ushbu mukofotlarni va yana bir guruh fidoyilarga "Mahalla iftixori" ko'krak nishonini topshirish marosimi o'tkazildi.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov mahalla faollarini bayram bilan tabriklab, ularning zahmatli mehnatlarini e'tirof etdi.

— Sohadagi kamtarona mehnatimiz yuksak qadrlanib, davlat mukofotiga loyiq ko'rilganimdan juda xursandman, — deydi Paxtachi tumanidagi Qarnabota mahallasi raisi, "Do'stlik" ordeni sohibi Uchqun Begmatov. — Tizimda 1996-yildan beri turli vazifalarda faoliyat yuritib kelmoqdaman. Ayni kunlarda davlatimiz rahbari tomonidan mahallaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ana



shu e'tibor va g'amxo'rlik samarasida viloyat, tuman markazlaridan ancha olis hududda joylashgan bo'lsa-da, mahallamiz obod manzilga aylanib bormoqda. Aholimiz to'liq toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan. Hududdagi 45-umumiy o'rta ta'lim maktabi qayta ta'mirlandi. 120 o'rinli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti va bolalar musiqa va san'at maktabi bunyod etildi. Mahallamiz ichki yo'llari ta'mirlandi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan "mahalla yettligi" tashkil etilganligi hudud aholisining muammolarini shu yerning o'zida hal etishning eng maqbul yechimi bo'ldi.

Mahalla tizimi xodimlarini qo'llab-quvvatlash, ularni samarali faoliyatini munosib rag'batlantirish maqsadida ta'sis etilgan "Mahalla iftixori" ko'krak nishoni har yili ushbu sanada mahalla taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan fidoyilarga tantanali topshirib kelinmoqda. Shu kungacha Samarqand viloyatidan 251 nafar mahalla jonkuyarlari "Mahalla iftixori" bilan taqdirlangan. Ular safiga bugun o'zining fidokorona mehnati bilan jamiyat rivoji yo'lida munosib mehnat qilib kelayotgan yana 18 nafar tizim xodimlari qo'shildi.

A.ISROILOV.



INDALLOSINI AYTGANDA...

Erkin A'ZAM, O'zbekiston xalq yozuvchisi:

— Vatanni sevish kerak, deganlarga tushunmayman, men uchun bu g'aliz gap. Axir Vatanni sevmaslik ham mumkinmi? U seniki-ku! Vatan yomon bo'lsa, demak, sen ham yomonsan.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yili bahor va kuz mavsumida ko'chat ekish odatiga aylandi. Aslida bu odat kecha paydo bo'lgan emas, ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan an'ana.

Viloyatimizda bu yil bahor mavsumida 10 million 208 ming tup ko'chat ekish rejalashtirilgan. 18-mart kuniga qadar 1 million 314 ming tup (13 foiz) daraxt va buta ko'chatlari ekilib, elektron platformaga kiritildi. Joriy yil yakuniga qadar viloyatning 7 tuman va shahrida 28,4 gektar maydonda "Yashil bog'" barpo etiladi. Buning uchun yer maydonlari tanlanib, mahalliy Kengashlarning qarorlari qabul qilingan.

Bundan tashqari 16 ta shahar-tuman hokimliklari tomonidan 34 ta "Hokimlik bog'i" tashkil qilinishi belgilangan. Buning uchun viloyatning barcha tuman va shahar hokimliklari tomonidan bahor mavsumida 10,56 gektar yer maydoni tanlab olindi.

Hozirgacha Past Darg'om tuman hokimligi 0,5 gektar maydonda 450 tup ko'chat va Narpay tumani hokimligi 0,5 gektar yer maydonida 350 tup ko'chat ekib, "Hokimlik bog'lari" tashkil qildi.

Samarqand tumanidan 6 gektar, Toyloq tumanidan 0,25 gektar, Kattaqo'rg'on shahridan 0,5 gektar hamda Samarqand shahridan 1 gektar yer maydoni tanlab olinib, "Yashil belbog'" yaratish maqsadida mahalliy Kengashlarning qarorlari qabul qilindi.

Viloyatda joriy yil yakuniga qadar 64,15

"Yashil makon": Bahorda 10 million 208 ming tup ko'chat



gektar maydonda "Yashil jamoat parklari" barpo etiladi. Bu bo'yicha viloyat hokimining qarori va barcha shahar, tuman sessiya qarorlari qabul qilinib, vazirlikka taqdim etilgan.

58 ta sanoat korxonasi tomonidan 75

ming tup daraxt ko'chati ekilib, "Yashil belbog'"lar yaratiladi. Bugungi kunda atrof-muhitga ta'siri bo'yicha sanoat korxonalari tomonidan 15 ming 420 tup daraxt va buta ko'chatlari ekildi.

Sherali ISKANDAROV

Qo'shrabotda parrandachilik kutilgan natijani berdimi?

Sarlavhani shunday qo'yishimizga sabab bor, 2021-yil davlat rahbarining Samarqandga tashrifi davomida bu tumanda parrandachilikni rivojlantirish yuzasidan berilgan topshiriqlardan so'ng matbuotda aynan shunday bayonotlar berilgan, parrandachilik tumanda kambag'allikni tugatishiga ishora qilingan maqolalar e'lon qilingandi. Prezident tomonidan Qo'shrabot tumanida xonaki tovuq yetishtirish va mahsulotni realizatsiya qilishning yaxlit tizimini yaratish bo'yicha topshiriqlar berilgandi.



Xususan, tumanda Davlat soliq qo'mitasi huzurida aholiga parrandachilikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi "Loyiha ofisi" tashkil etilib, shu soha bilan shug'ullanuvchi har bir xonadondagi holatni doimiy kuzatib borish hamda ularga o'z vaqtida veterinariya xizmatlari ko'rsatilishi va zarur ozuqa yetkazib berilishini yo'lga qo'yish vazifasi qo'yilgandi.

Oradan roppa-rosa uch yil o'tdi. Xo'sh, tumanda ko'zlangan loyihalar amalga oshirdimi? Bugun tuman parrandachilik bo'yicha respublika va viloyatda nechanchi o'rinlarda turadi? Ishsiz aholining necha foizi shu yo'nalishda o'z o'rnini topdi?

(Davomi 2-sahifada) >>>

Poytaxtimizda "Namunali mahalla huquq tartibot maskani" tanlovining respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Unda Jomboy tuman "Naymantepa" mahalla fuqarolar yig'ining xotin-qizlar faoli Sanobar Abdullayeva "Eng namunali xotin-qizlar faoli" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

Eng namunali xotin — qizlar faoli jomboylik



— Mahallamizda besh yildan beri jinoyatchilik kuzatilmagan, xotin-qizlar o'rnatilgan jinoyatchilik esa 10 yillardan beri qayd etilmagan, — deydi Sanobar Abdullayeva.

— Naymantepada to'rt mingdan ziyod aholi istiqomat qilsa, ularning 2066 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi. O'tgan yildan notinch oilalar bilan ishlashda boshqa bir tizim asosida ish olib boryapmiz. Misol uchun, ilgari notinch oila deganda barcha oila a'zolari tushunilar va ulardan xabar olish u yoki bu ma'noda moddiy yordamgina nazarda tutilardi. Hozir oiladagi notinchlikka sabab bo'lgan shaxs bilan aniq va tizimli ish olib boriladi. Bu tizim faqat bir kishining emas, "mahalla yettligi", profilaktika inspektori bilan rejali hamkorlik asosida amalga oshiriladi. Shu tizim asosida ish olib borib, notinch oilalar soni keskin kamayishiga erishdik.

Misol uchun, o'tgan yili bir necha yildan beri spirtli ichimlikka ruju qo'ygan ayol bilan ishladik. Avvalo, sabablarni aniqladik, oiladagi muhitni o'rgandik. Ayolning bandligini ta'minlash bilan bir qatorda ruhiy holatiga ta'sir o'tkazish, uni stress holatdan olib chiqishga harakat qildik. Hozirda bu oila turmushi izga qo'yilgan xonadonlardan biriga aylandi.

Madina EGAMOVA,
Ishtixon tumanidagi 31-maktab
o'qituvchisi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashida 2024-yil 2-fevralda-gi «Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident farmoni mazmun-mohiyati yuzasidan seminar tashkil etildi.

VAKOLAT KENGAYADI, MAS'ULIYAT OSHADI

Deputatlar hamda tuman (shahar) Kengashlari kotibiyat mudirlari ishtirok etgan tadbirda yillar davomida mahalliy Kengashlar zimmasiga yuklab kelingan qator vakolat va funksiyalar tizimlashtirilayotgani qayd etildi.

Xususan, mahalliy Kengashlarga hokimliklar, hududdagi davlat organlari va tashkilotlari hisobotlarini eshitishda mazmunan yaqin sohalarida o'zaro takrorlanuvchi vazifalar yuklanganligi sababli ularni qayta ko'rib chiqish, maqbullashtirish hamda tizimlashtirish zarurati mavjud edi.

Kengashlarning qonunchilikdagi vakolatlari tizimlashtirilmagani natijasida mahalliy Kengashlar hokimliklar va qator davlat idoralarining u yoki bu sohaga oid hisobot va axborotlarini yiliga qariyb yuzdan ortiq marotaba eshitishi lozim edi. Bu esa mahalliy Kengashlarning ish yuklamasini sun'iy ravishda oshirib, muhim vakolatlar nomigagina amalga oshirilishiga sabab bo'layotgan edi.

Umuman, 12 ta kodeks, 87 ta qonun, 54 ta prezident farmoni va 95 ta qarori hamda hukumatning 169 ta qarorida mahalliy davlat hokimiyati organlariga muayyan vazifa yuklovchi 700 dan ko'proq normalar mavjud. Bu esa mahalliy Kengashlarning ish yuklamasi oshishiga olib kelgan vazifa va topshiriqlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirgandi.

Davlatimiz rahbarining farmoni bu kabi yechimini kutayotgan masalalarni hal qilishi shubhasiz. Zotan, hujjatda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining davlat organlarining hisobot (axborot)larini eshitishga doir jami 38 ta funksiya va vakolatlari 10 taga birlashtirilgan holda tizimlashtirilishi, 17 ta vakolatidagi hisobotni (axborotni) eshitish davriyligi aniqlashtirilishi belgilandi.

Misol uchun, ichki ishlar organlarining hududiy bo'linmalari rahbarlari, ularning tarmoq bo'yicha o'rinbosarlari, shuningdek, mahallalarda-gi profilaktika inspektorlari ham mahalliy Kengashlarga alohida-alohida hisobot berar edi.

Endilikda ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari) boshliqlarining huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati, shuningdek, jamoat xavfsizligi haqidagi hisoboti har chorakda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlarida eshitiladi.

Farmon bilan Kengashlar oldida tegishli hududda faqatgina hokim, shuningdek, hududiy davlat organlarining birinchi rahbarlari hisobdorigi belgilanishi kelgusida ushbu rahbarlarning Kengash oldida ham siyosiy ham professional mas'uliyatini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda vazifalarni mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasida aniq belgilash amaliyotining joriy etilishi hokimiyatlar o'rtasida muvozanat ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Shu maqsadda joriy yil 1-oktabrga qadar mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish belgilandi. Bu vazifani Oliy Majlis Senati Vazirlar Mahkamasi bilan birgalikda amalga oshiradi.

Ahamiyatlisi, Konsepsiyada mahalliy Kengashlarning norma ijodkorligi sohasidagi faoliyatini takomillashtirish, mahalliy Kengashlar, ularning organlari va deputatlarning nazorat faoliyatini takomillashtirish bilan birga samarali nazorat tizimini shakllantirish ko'zda tutilmoqda.

Yana bir muhim yangilik shundaki, mahalliy Kengashlar tomonidan jamiyat manfaatlariga doir muhim va dolzarb masalalar yuzasidan Senatga taklif va strategiyalar kiritish mexanizmi ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, mahalliy Kengashlar qarorlarini tayyorlashda keng jamoatchilik ishtirokini ta'minlash, mahalliy Kengashlar faoliyatida o'zaro va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi vakolatlar belgilanishi ko'zda tutilmoqda.

Albatta, pirovad maqsad mahalliy Kengashlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishdan iborat bo'lgan bu kabi yangiliklar mahalliy davlat hokimiyati organlari zimmasiga ulkan mas'uliyat ham yuklaydi.

Musurmon BEGIMQULOV,

xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati bosh mutaxassisi.

Qo'shrabotda parrandachilik kutilgan natijani berdimi?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Umuman, parrandachilik sohasi bo'yicha Qo'shrabot tumanidagi ishlarni maqtash ham, tanqid qilish ham mumkin. Ikkiyiga ham to'xtalamiz. Ammo eng achinarlisi shuki, davlat rahbari topshirig'i bilan tashkil etilgan parrandachilik bo'yicha "Loyiha ofisi" bugun faoliyatini to'xtatib qo'ygan. Holbuki, bu loyiha yuqorida aytganimizdek, tumanda parrandachilik bilan shug'ullanuvchi har bir xonadonni doimiy kuzatib borish, o'z vaqtida veterinariya xizmatlari ko'rsatilishi va zarur ozuqa yetkazib berilishini yo'lga qo'yishi

oilalar bor. 2023-yilda tumanda aholi va korxonalar tomonidan 2,1 ming tonna parranda go'shti, 27,8 million dona tuxum yetishtirilgan. Bugungi kunda tumanda drayveri aynan parrandachilik bo'lgan 12 mahalla bor. Tuman hokimligi ma'lumotiga ko'ra, 1457 ta xonadon parrandachilik bilan shug'ullanadi. 4500 yaqin aholi shu sohada band.

Masalan, Shovana mahallasida yashovchi fuqaro Elyor Tilovov tomonidan go'sht yo'nalishi bo'yicha 2000 dona tovuq boqilmoqda. Bu tovuqlar har 40-45 kunda tayyor bo'ladi. Har bir tayyor bo'lgan tovuqdan



kerak edi. Mana bir haftadirk, "Loyiha ofisi" faoliyati to'xtagani sababini aniq aytib beradigan mas'ul topilmadi. Sohaga yaqin ayrim mutaxassislarning fikridan bildikki, "Loyiha ofisi" bankrotga uchragan. Boshida tashkilot yuzlab xonadonlarga inkubator olib berib, tovuqchilikni boshlashga ko'mak ko'rsatgan. Ammo ish to'g'ri yo'lga qo'yilmagani bois tashkilot ko'p o'tmay moliyaviy qiyinchiliklarga uchragan va ishini to'xtatishga majbur bo'lgan. Uni qo'llab-quvvatlash, tiklash, faoliyatini davom ettirish masalasi esa ko'tarilmagan. Fikrimizcha holat viloyat darajasida bir o'rganib ko'rilihi lozim.

Albatta, bu degani tumanda parrandachilik ham to'xtadi degani emas. Har bitta mahallada o'nlab, ayrim mahallalarda yuzlab tovuq boqib kun ko'radigan

o'rtacha 2,5-3 kilogramdan go'sht olish mumkin. Yoki Chimmos mahallasida yashovchi O'rolboy Muftillayev xonadoniga 2500 ta tuxum yo'nalishida parrandalar 2023-yilda berilgan bo'lib, kuniga 2480 dona tuxum olinmoqda.

Uyda parrandachilik tashkil etgan xonadonlarda bo'ldik. Shu ish bilan shug'ullanib, o'zini tiklab olgan, daromad olayotganlar ko'p. Bir qator muammolarga duch kelayotganlar ham bor.

Masalan, Tinchlik mahallasida istiqomat qiluvchi Sanobar Usmonova shu ish bilan shug'ullanib, yaxshi daromad qilayotgani ma'lum qildi.

Bu xonadonda 640 dona parranda bo'lib, har kuni o'rtacha 630 ta, oyiga qariyb 19 mingta tuxum olinadi. Kunlik sarflanadigan yem hajmi 64 kilogram. Bir oylik jami daromad 22 million

so'm, yem va boshqa xarajatlar 14 million va oylik sof foyda 8 million so'mga yaqin.

Buloq mahallasida yashovchi Sadriddin Qarshiyev esa parrandachilik bilan shug'ullanib, qator muammolarga duch kelganini aytmoqda.

- Tovuqchilik aslida yaxshi ish. Qarindoshlarim shu ish bilan shug'ullanib daromad topganini ko'rganman. Shularga qarab, o'zim ham shug'ullanishga qaror qilgandim. O'tgan yil iyul oyida ish boshladik. Ammo o'ziga yarasha muammolari bor ekan. Tovuqxona tovuq firma tomonidan qurib berilishi aytilgandi. Oldin ishlaganlarga shunday qilinardi. Ammo bizga kelganda bu ish o'zimizga qoldi. Tumandagi "Loman Parranda" MChJ-dan 1120 ta tovuq olgandik. Ammo tovuqlar yetib kelishi jarayonida 20 tasi o'ldi. Hozirga kelib, 1070 ta qolgan. Besh oy tuxumni 90 foizdan kam olganim yo'q. Keyin tusha boshladi. Hozirda kuniga 850 ta tuxum olyapman. Asosiy muammo shundaki, menga berilgan tovuqlarning deyarli barchasi yoshi o'tgan tovuqlar. Bizga yosh tovuqlar berilishi ko'zda tutilgan edi. Keksa tovuqlar almashtirishi aytilgan edi, o'lganlari uchun ham boshqa tovuq berilishi aytilgandi. Ammo unday bo'lmadi. Olinayotgan tuxum soni tushib ketgani uchun hozir daromad olmayapman. Har qancha murojaat qilmay, natija bo'lmayapti. Hozirda tovuqlarni ekspertiza qilamiz deyishyapti. Anig'i shuki, yaqin orada bizga parranda bergan firma bilan sudlashishimga to'g'ri keladi. Chunki bu tovuqlarning har biri menga kreditga 106 ming so'mdan tushgan, - deydi S.Qarshiyev.

Sadriddin Qarshiyevga ko'ra, aslida tovuqchilikdan foyda olsa bo'ladi, o'zi bilgan qator odamlar bundan daromad qilib ketaypti. Ammo buning uchun qoidalar ishlashi kerak.

Surishtirib bildikki, tadbirkorlarga berilgan tovuq undan oldin Kattaqo'rg'ondagi xaridorlardan biriga yetkazilishi kerak bo'lgan. Ammo xaridor aynan tovuqlar yoshi o'tgani sabab ularni qaytar-gan.

Fikrimizcha, bunday muam-

molar hamma ham uchramaydi. Modomiki, sanoqli holat ekan, mas'ullar ham holatga aralashib, huquqiy yordam ko'rsatib, muammoni hal qilishda ko'maklashishlari kerak. Bunday oilalar bilan ishlashi kerak bo'lgan "Loyiha ofisi" esa yuqorida aytganimizdek faoliyatini to'xtatgan.

Tuman hali ham tuxum yetishtirish bo'yicha viloyatda 10-o'rindan orqada. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Qo'shrabot tumani tuxum yetishtirish bo'yicha 2023-yilda viloyatda 11, 2021-yilda 14-o'rinda qayd etilgan. Ammo aholida bu yo'nalishga qiziqish yo'q emas. Yildan-yilga parranda bilan shug'ullanuvchilar soni ortmoqda.

Samarqand viloyati, mana necha yirdirki parrandachilik bo'yicha respublikada birinchi o'rinni egallab turibdi. Sohada ulkan tajribaga ega tumanlar bor. Ehtimol ularning tajribasi ham o'rganilishi kerakdir.

Yana bir mulohaza. Odatda qaysi bir hududda biror tarmoq rivojlansa, yakka tadbirkorlar, xo'jaliklarga, xo'jaliklar yanada yirikroq shakldagi korxonalarga aylanib boraverishi va yirik korxonalar soni ko'payishi kerak. Qo'shrabotda esa hamon soha o'zini o'zi band qilishdan narigajiljmayapti. Tumanda bitta yirik korxona, uchta fermer xo'jaligi mavjud. Ular soni nega o'smayotganini ham bir o'rganib ko'rish, to'siqlar bo'lsa, olib tashlash kerak.

Qolaversa, qaysi hududda qanday tadbirkorlik turiga talab bo'lsa, azaldan shu soha rivojlanib kelgan. Fikrimizcha bunga ham e'tibor qaratish kerak. Ma'lumotlarga ko'ra, Qo'shrabotda uzumchilik bilan shug'ullanuvchi bitta xonadonning yillik daromadi 80 million so'mdan oshadi. Shuningdek, qo'ychilikda yillik 28,6 million, tog'-kon sanoatida 32 million va xizmat ko'rsatishda ishlovchi xonadonlarning yillik daromadi 25,5 million so'm. Parrandachilikda esa bir xonadonning yillik daromadi 15 million so'm deb ko'rsatilmoqda. Demak, hudud salohiyati, resurslari va aholi qiziqishidan kelib chiqib, boshqa yo'nalishlarda ham e'tiborni susaytirmaslik lozim.

Anvar MUSTAFOQULOV,
"Zarafshon" muxbiri.

2024 – yilda dehqon xo'jaliklariga 8,3 ming gektar yer ajratiladi

Viloyatimizda jami qishloq xo'jaligi yer maydoni 1,677 ming gektarni tashkil etib, shundan 245 ming gektar sug'oriladigan, 49 ming gektarini lalmi yerlar, 1,3 million gektarini yaylov, daraxtzor va boshqa yerlar tashkil etadi.

Bu raqamlar viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi rahbar va mas'ullari 2023-yil viloyatimiz agrar tarmog'ida bajarilgan ishlar joriy yilgi rejalarga bag'ishlangan matbuot anjumanida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha harakatlari borasida ma'lumotida keltirildi.

Keyingi besh yilda 46 ming gektar (shundan, 7180 gektar qayta foydalanishga kiritilgan suvli yerlar, 38820 gektar lalmi yerlar o'zlashtirilgan. Ushbu maydonlardan yiliga 390 ming tonnadan ortiq qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirilmoqda. 2023-yilda esa jami 6420 gektar yer o'zlashtirildi.

- Joriy yilda 20 ming gektar yer o'zlashtirish rejalashtirilgan, - deydi viloyat qishloq xo'jalik boshqarmasi boshlig'i Bekzod Tugalov. - Hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu maqsadlar uchun viloyat bo'yicha jami 504,8 milliard so'm, shundan 409,5 milliard so'm tashabbuskorlarning o'z mablag'lari, 95,3 milliard so'm bank kreditlari yo'naltiriladi.

Jumladan, Bulung'urda 3129, Jomboyda 2700, Ishtixonda 1014, Kattaqo'rg'onda 2000, Narpayda 801, Nurobodda 3024, Payariqda 2032, Past Darg'omda 971, Paxtachida 1063, Samarqandda 747, Urgutda 519 va Qo'shrabot tumanida 2001 gektar yer o'zlashtiriladi. O'zlashtirilgan yerlarga qishloq xo'jaligi ekinlari ekilib, 211,1 ming tonnadan ortiq qo'shimcha qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish imkoniyati yaratiladi 33,3 mingta yangi ish o'rni yaratiladi.

Tabiiy savol tug'iladi – hudud aniq bo'lsa, yer qayerdan, qaysi resurs hisobidan o'zlashtiriladi? Bunda mutaxassislardan tomonidan lalmi maydonlar o'rganib chiqilib, yer ostida suv manbasi borligi aniqlangan maydonlar o'zlashtiriladi.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan bo'lgan paxtachilik yo'nalishida viloyatimiz dehqonlari 73,2 ming gektar maydondan 265 ming tonnadan ortiq xomashyo yig'ishtirib olishdi. Davlatimiz rahbarining joriy yil 12-fevraldagi videoselektorida bu yildan ilk bor xorijdan keltiriladigan chigitni ekishga ruxsat berildi. Joriy yilda 4,3 ming gektarda yuqori hosildor xorijiy paxta navlarini ekish rejalashtirilgan.

G'allachilikda o'tgan yili 90,4 ming gektar suvli maydondan 713 ming tonna

boshqoli don yetishtirilib, har gektardan o'rtacha hosildorlik 78,8 sentnerni tashkil etdi. Joriy yilda esa 94,2 ming gektar maydondan 725 ming tonna don olish va hosildorlikni gektariga 100 sentnerga yetkazish kutilmoqda.

Prezidentimizning aholi bandligini ta'minlash va mahsulot yetishtirishni ko'paytirishga qaratilgan qarorlari asosida viloyatda dehqon xo'jaligi tashkil etish uchun 16159 gektar yer maydoni "e-auksion" savdo platformasiga chiqarildi va 55 ming fuqaroga ajratildi. Ushbu maydonlardan yiliga 2-3 marta hosil olish hisobiga jami 397 ming tonna mahsulot yetishtirilmoqda. O'tgan yilda ushbu maydonlardan jami 780 milliard so'm daromad olinib, 1 ta dehqon xo'jaligiga o'rtacha 20-25 million so'mdan to'g'ri keldi. Ular tomonidan yetishtirilgan mahsulotlardan 2024-yilda 262 million dollar (249 ming tonna) eksport qilindi.

- 2023-yilda aholiga 7,5 ming gektar yer ajratilib, 18,4 mingta dehqon xo'jaligi tashkil etish va 98,5 ming (80,2 ming mavsumiy) ish o'rni yaratildi, - deydi boshqarma boshlig'i o'rinbosari Samad Saidov. - 2024-yilda 8,3 ming gektar yer maydoni dehqon xo'jaliklari tashkil etish uchun ajratilib 15,3 mingta dehqon xo'jaliklari tashkil etiladi va 30 ming yangi

ish o'rni yaratiladi. Shundan 1332 gektar maydon sabzavotchilik uchun rejalashtirilgan. Tarmoqdagi muhim jihatlardan yana biri Nurobod tumani Sari-kul hududida 1400 gektar maydonda kartoshkachilik xo'jaligi tashkil etiladi. Avval suv bo'lmagan bulal maydonda tomchilatib sug'orish texnologiyasi asosida tadbirkorlar tomonidan mahsulot yetishtiriladi. Qolaversa, uzumchilikni rivojlantirish uchun viloyatda eng yaxshi texnologiyalardan hisoblangan Oltiariq tajribasi tatbiq etilib, 4700 gektar maydonda uzumzorlar barpo etiladi.

Soha subyektlari tomonidan o'tgan yilda 326,2 ming tonna go'sht (tirik vaznda), 1 million 40 ming tonna sut, 17,9 ming tonna baliq tayyorlangan. Xorijdan 3900 bosh qoramol va 13275 bosh qo'y-echki olib kelinib, qiymati 760,1 milliard so'mlik 458 ta loyiha ishga tushirilgan va 2553 ta ish o'rni yaratilgan.

Joriy yilda viloyatda chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 629 milliard 45 million so'mlik 93 ta loyiha ishga tushiriladi. 2024-yil yakunida



barcha toifadagi xo'jaliklarda qoramollar bosh soni bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarni 1 million 804 ming (o'sish sur'ati 103 foiz) boshga, shundan, fermer xo'jaliklarida 100 ming 500 (o'sish sur'ati 103,2 foiz) boshga yetkazish rejalashtirilgan.

Umuman olganda, o'tgan yilda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 51,2 trillion so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan o'sish sur'ati 4,4 foizga yetdi. 2024-yilda 60,1 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, o'sish sur'atini 2023-yilga nisbatan 5,6 foizga yetkazish reja qilingan.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

Endi kadastr xodimi ham bodikamera va planshet bilan ishlaydi

Aholi tomonidan tahririyatimizga, turli davlat idoralariga bo'layotgan murojaatlarning aksariyati yer munosabatlari va kadastr sohasi bilan bog'liq. Ularning katta qismi qo'shnilar o'rtasidagi yer talashish, uy-joylarning kadastr hujjatlari, noqonuniy yer o'zlashtirish va chegaralar bo'yicha bo'la-di. Bir murojaatda chekka hududdagi fuqaroning kadastr hujjati bo'lsa-da, uning yer maydoni qo'shnilari tomonidan o'zlashtirilgan.

Hozir texnika va texnologiya ancha rivojlangan davrda shu kabi holatlar yuzaga kelmasiligi uchun kadastr hujjatlari shakllantirilayotgan vaqtda faqat qo'shnilarinagina belgilab qolmasdan, gorizont tomonlari, fuqaro uy-joy maydonining aniq koordinatasini belgilashning imkoniyati yo'qmi?

Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasida o'tkazilgan press-turda shu kabi savollarga javob berildi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, yil boshida, viloyatimizda jismoniy va yuridik shaxslar egaligidagi ko'chmas mulklar soni 899 290 ta bo'lib, shundan 869 580 tasi jismoniy shaxslar tasarrufidagi obyektlar hisoblanadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 7329 taga oshgan. Shundan 5948 tasi jismoniy shaxslarga tegishli obyektlar hisoblanadi.

Ko'chmas mulklarni turlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, yakka tartibdagi turarjoylar soni

736337 tani tashkil etadi, - deydi boshqarma boshlig'i o'rinbosari Shakarboy Bo'tayev. O'tgan yilga nisbatan yakka tartibdagi uy-joylarning qayta qurilishi yoki butunlay buzilganligi hisobiga 4344 taga kamaygan bo'lsa, yuridik shaxslarga tegishli ko'chmas mulklar 157 taga ko'paygan. Aholi foydalanuvchidagi tomorqa uchastkalari 52413 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 404 taga ko'paygan. Xonadonlar soni 102371 tani tashkil etgan va o'tgan yilga nisbatan jismoniy shaxslar bo'yicha 8216 taga ko'paygan bo'lsa, yuridik shaxslarniki aksincha, 1342 taga kamaygan.

O'tkazilgan xatlovlar va ma'lumotlarni elektron bazaga kiritishda viloyatimizda 583494 ta davlat ro'yxatidan o'tmagan obyektga

tegishli ma'lumotlar tahlil qilindi. Ya'ni, huquqiy hujjati bo'lmagan uy-joylar soni 456929 tani, davlat ro'yxatidan o'tgani esa 26467 tani tashkil etmoqda. Huquqiy hujjatlari mavjud bo'lgan 63476 ta obyekt davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Kadastr sohasidagi yana bir muhim jihat - yerlarni onlayn auksionga chiqarish bilan bog'liq. Ushbu masalada sohada tegishli huquqiy hujjatlari asosida viloyat tuman va shaharlardan 666,5 gektar maydon bo'yicha 6321 ta bo'sh yer maydoni savdoga kiritilgan. Shundan 3055 ta yer uchastkasi auksion savdoga chiqarilib, 1532 ta lot sotilgan, yana 1523 ta lot savdoda va 1695 ta yer uchastkasi tashkilotlar tomonidan rad etilgan. Boshqa yer maydonlari turli tashkilotlar bilan kelishuv jarayonida.

Tadbirda kadastr sohasi-da foydalaniladigan uskunalar, yerlarni sun'iy yo'ldoshdan suratga olishdagi aniqlik, tizimdagi yangiliklar xususida ham ma'lumot berildi.

Yuqoridagi savolga keladigan bo'lsak, texnik jihatdan buning imkoniyati bor, - deydi kadastr agentligi viloyat boshqarmasi shu'ba mutaxassisi Xurshid Berdiqulov. - Buning uchun zamonaviy JPS qurilmalari foydalaniladi. Bu uskuna barcha tuman kadastr bo'limlari ham berilgan, ammo uskuna bitta bo'lganligi uchun ko'pincha ulgurilmaydi. Bu uskunaning sohada muhimligi inobatga olinib, davlatimiz rahbarining tegishli qarorlari asosida yana 20 ta JPS qurilmasi xarid qilindi va yaqin kunlarda viloyatimizga keltirilib,

foydalanishga kiritilishi kutilmoqda. Yana bir muhim jihat, avval kadastr yig'majildida faqat uy-joyning chegaralari qo'lda o'lchanib chizilgan bo'lsa hozirda obyektning topos'yomkasi ham yig'majildga tikilmoqda.

Tizimdagi yangiliklardan yana biri muhim kadastr xodimlari endilikda planshet orqali ish faoliyatini olib boradi va har bir xodimda yo'l harakati xavfsizligi xodimlari kabi bodikamera bo'ladir. Avval mutaxassis joyni o'rgan-gach, ish joyiga qaytib, bazadan haqiqiy holatni tekshirishga to'g'ri kelardi. Endi esa o'sha joyning o'zida yer maydoni chegaralarini tekshirish, koordinatalarni tizimga kiritish va murojaatlarga qisqa fursatda yechim topish imkoniyati yaratildi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

“Besh muhim tashabbus” talabalar uchun imkoniyatlar eshigini ochmoqda

Davlatimiz rahbari ilgari surgan “Besh muhim tashabbus” ishsiz yoshlar bandligini ta'minlash, yigit-qizlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport, madaniyat va san'at musobaqalariga jalb qilish, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, kitobxonlikni targ'ib qilish hamda xotin-qizlarga kasb-hunar o'rgatish maqsadida “Besh muhim tashabbus” markazi tashkil etilgan. Markazda san'at yo'nalishida “Quvnoqlar va kukkolar”, “Talabalar teatr studiyasi” klubi, “Sozan-

da yoshlar” va “Ranglar sehri”, sport yo'nalishida voleybol, gandbol, futbol, shaxmat, shashka, stol tennisi, kurash, basketbol, yengil atletika to'garaklari, axborot texnologiyalari yo'nalishida “Kompyuter bilimdonlari”, kitobxonlik yo'nalishida “Zakovat” intellektual klubi, “Mutolaa zavqi”, “Bahs-munozara” va “Notiqlik sa'nati” guruhlari hamda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash yo'nalishida “Dilbar qizlar” klubi, “Mohir qo'llar”, Pazandalik va Tikuvchilik to'garaklari mavjud. Ularda uch ming nafardan ortiq talaba-yoshlar qamrab olingan.

To'garaklarga malakali mutaxassislar jalb qilingan bo'lib, haftada uch marta mashg'ulotlar tashkil etilyapti. Talabalarimiz universitet, viloyat, respublika miqyosida o'tkazilayotgan tanlov va musobaqalarda munosib ishtirok etib kelmoq-

da. Jumladan, o'tgan yil musobaqalarda talabalarimizning 150 nafardan ziyodi turli toifadagi sport razryadlarini qo'lga kiritdi. Shuningdek, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o'tkazilgan “Talabalar teatr studiyalari” tanlovida universitetimiz talabalar jamoasi Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasini sahnalashtirib, ikkinchi o'ringa sazovor bo'ldi.

Joriy yilning 3-5-fevral kunlari Samarqand shahrida sportning armrestling turi bo'yicha o'tkazilgan mamlakat chempionatida talabamiz Zarina Safarqulova 9 karra O'zbekiston chempioni bo'ldi. U uch karra Osiyo chempionligini ham qo'lga kiritgan. 10-13-fevral kunlari esa viloyatdagi 12 ta oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'tkazilgan “Talabalar ligasi” o'yinlari doirasidagi voleybol musobaqasida universitetimiz jamoasi ikkinchi, stol tennisi bo'yicha esa uchinchi o'rinni egalladi.

Alibek GAPPAROV, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti yoshlar siyosati va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori.

Radioelektron vositalardan foydalanishda ham tartib bor

“O'zkomnazorat” inspeksiyasi viloyat hududiy shu'basini tomonidan o'tkazilgan nazorat tadbirida Samarqand shahri Rudakiy ko'chasidagi ko'p qavatli turarjoy binosini qurish jarayoni hamda Samarqand tumanida joylashgan avtomashinalarga



yoqilg'i quyish shoxobchalaridan birida 9 dona radioelektron vositalardan (ratsiya) ruxsat etilmagan chastotalarda foydalanib kelingani aniqlandi.

Aytish joizki, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 801-son qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasi hududi-

da radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalarni sotib olish (berish)ning belgilangan tartibiga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish “O'zkomnazorat” inspeksiya tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalardan foydalanish tartibini buzish esa javobgarlikka sabab bo'ladi. Qonunchilikka ko'ra, fuqarolar tegishli ruxsatnomaga ega bo'lgan yoki fuqarolik maqsadlarida foydalanishda bo'lgan 446,0-446,2 MHz chastotada ishlovchi radioelektron vositalardan foydalanishi mumkin.

Qonunbuzarlik holatiga kelsak, har ikki holat bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 152-moddasi 1-qismiga muvofiq, ma'muriy bayon-noma rasmiylashtirilib, sudga taqdim etildi.

R. KARIMOV, “O'zkomnazorat” inspeksiya viloyat hududiy shu'basini mutaxassisi.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti qoshida tashkil etilgan “O'zbekiston-Koreya kartoshka urug'chiligi markazi”ning gidroponika usulida qurilgan zamonaviy issiqxonasida mikro-tuganaklar ekildi. Ushbu jarayonda institut professor-o'qituvchilari, koreyalik mutaxassislar hamda sohaga qiziquvchi talaba-yoshlar ishtirok etdi.



Urug'lik kartoshka yetishtirishga kirishildi

- Dastlabki tadqiqotlarda respublikamizda keng tarqalgan 3 ta nav sinovdan o'tkazilmoqda, - dedi institut rektori, professor Shavkat Hasanov. - Bu navlar sharoitimizga mos, dehqonlarimiz tomonidan ekib kelinayotgan Sante, Pikasso va Nevskiy navlari bo'lib, ularning mikro-tuganaklari gidroponika sharoitida sinovdan o'tkazilgach, dastlab odatdagi issiqxonalarda, so'ngra institut axborot maslahat markazida ochiq maydonlarda ko'paytiriladi.

Institutda hozirda janubiy koreyalik mutaxassislar tomonidan qiymati 770 ming AQSh dollar bo'lgan mikro-tuganak yetishtirishga mo'ljallangan zamonaviy gidroponika issiqxona (40x40 m), kartoshka mini tuganaklarini yetishtirish uchun 7 ta issiqxona (6x40 m), urug'lik tuganaklarni saqlash uchun omborxona (20x25 m) qurish ishlari yakuniga yetmoqda. Bundan tashqari, kartoshka urug'lik tuganaklarini jadal ko'paytirish maqsadida in-vitro laboratoriyasini qurish va jihozlash bo'yicha ishlar boshlanmoqda.

Joriy yil ushbu sohada 15 nafar professor-o'qituvchi va tadqiqotchilar Janubiy Koreyada malaka oshiradi. Kelgusida markazda respublikamiz va viloyatimizda urug'lik kartoshka yetishtirish bo'yicha xalqaro tajriba joriy qilinib, respublikamiz iqlim sharoitiga mos navlarni yaratish, yuqori sifatli urug'lar yetishtirish ustida ishlar olib boriladi.

Xurshida ERNAZAROVA.

REKLAMA, E'LOMLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...
Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasida marhum Saidova Mubaro Babakalovnaga (2007-yil 17-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Isoqulova Nigora Turdiqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.
Manzil: Samarqand shahri Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, 12-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Fattayev Abdusalimga (2012-yil 30-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.
Manzil: Samarqand tumani O'rtashiq mahallasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Abdullayeva Ulbozorga (2022-yil 11-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.
Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 76-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Shukurov Kaxor Xodiyevichga (2021-yil 14-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.
Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 157-uy. Mo'ljal: Samarqand viloyat IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari bo'limi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Samatov Xamid Djallilovichga (2011-yil 22-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.
Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-“A” uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Valiyeva Kundus Kuziyevnaga (2023-yil 21-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.
Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Sulaymanov Mardon Sulaymanovichga (2022-yil 4-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.
Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

BEKOR QILINADI
“INSON” MCHJ sug'urta tashkiloti Samarqand viloyat filialiga qarashli A-4 shakli: 0059712, 0059734, 0059750, 0060592, 0060651, 0060653, 0062039, 0062048, 0062109, 0062116, 0073838, 0081120, 0075523, 0073840 raqamli sug'urta polislari yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sotuvchilar Davidov David va Davidov Arkadiyalar nomidan ishonchnoma asosida Dalerov Amir Dilshodovich hamda sotib oluvchi Shukurlayev Dilshod Dalerovichlar o'rtasida

Samarqand shahri Kamoliddin Behzod MFY, Isayev ko'chasi, 22-sonli uy turidagi ko'chmas mulk uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasidan 2023-yil 2-iyunda tasdiqlanib, Ksh 114332 SA blankada tuzilgan, 2023017114002786 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sotuvchi Davidov David va Davidov Arkadiyalar nomidan ishonchnoma asosida Dalerov Amir Dilshodovich hamda sotib oluvchi Shukurlayev Dilshod Dalerovichlar o'rtasida Samarqand shahri Kamoliddin Behzod MFY, Isayev ko'chasi, 22-“A” sonli uy turidagi ko'chmas mulk uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasidan 2023-yil 2-iyunda tasdiqlanib, Ksh 114333 SA blankada tuzilgan, 2023017114002787 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Buyuk bobokalonimiz va uning akademiyasi

Oʻrta asrlarda Sharqda, keyinchalik Gʻarbda ilm-fan rivojlanishiga ulkan hissa qoʻshgan qomusiy allomalimizdan biri **Mirzo Ulugʻbek – Muhammad Taragʻay oʻz davrida tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar integratsiyasi asosida Samarqand akademiyasiga asos solgan.**

Biz bejiz gapni akademiya boshlamadik. Birinchidan, Mirzo Ulugʻbek asos solgan akademiyaning falsafiy-ilmii mohiyatini anglash orqali undagi nochiziqli tafakkur elementlarini kashf etamiz va uning akademiyasida fanlararo integratsiya mavjud boʻlganligining ilmiy asoslarini topamiz. Ikkinchidan, gʻarblilik olimlar daʼvo qilayotgan aniq va tabiiy fanlar poydevori Gʻarbda emas, aynan Markaziy Osiyodan, jumladan, Ulugʻbek akademiyasidan boshlanganini va bu ilmiy haqiqat sobiq ittifoq davrida eʼtiborga olinmaganini anglaymiz.

Koʻpgina adabiyotlar, jumladan, Qori Niyoziy risolalari va boshqa ilmiy adabiyotlarda Mirzo Ulugʻbek astronomiya akademiyasini tashkil etgan olim sifatida taʼriflanadi. Vaholanki, oʻsha davrda nafaqat Samarqand, Markaziy Osiyo va Xurosonda fizika, astronomiya, kimyo, biologiya, geodeziya, geografiya, mantiq, falsafa, matematika, tarix, minerologiya, adabiyot va boshqa dunyoviy hamda diniy ilmlar rivojlandi. Allomaning saʼy-harakati bilan meʼmoriy sanʼat va arxitektura sohasi ham jadal surʼatda yuksaldi. Ulugʻbekning buyrugʻi bilan Samarqand shahridagi Ulugʻbek madrasasi, Ulugʻbek rasadxona-si, Shohi Zinda ansambli, Buxoro shahri va Gʻijduvon tumanidagi Ulugʻbek madrasalari, Shahrisabzdagi Ulugʻbek masjidi va boshqa meʼmoriy sanʼatning nodir namunalari bunyod etilgani akademiya ilmiy kengashining mahsuli edi. Shu nuqtai nazardan Mirzo Ulugʻbek anʼanaviy fikrlardan yuqoriroq - nochiziqli va fraktal tafakkur egasi ekanligidan dalolatdir.

U asos solgan ilmiy maktab va uning jahon ilm-faniga qoʻshgan hissasining falsafiy mohiyatini, undagi sinergetik yondashuv va gʻoyalari tahlilidan xulosa qilish kerakki, Mirzo Ulugʻbek nafaqat astronomiya, balki qomusiy bilimlar egasi sifatida Samarqand akademiyasiga va Markaziy Osiyoda birinchilardan boʻlib madrasai oliya, yaʼni universitetga asos solgan shaxs hisoblanadi. 1417-1420-yillar orasida hozirgi Registon maydonida oʻz davridagi talabalar va kelajak avlodning ilm olishi maqsadida katta madrasa binosini qurishga farmon berganini, Ulugʻbek madrasasi qurdirib bitkazilgandan keyin uning ochilish marosimida Mavlono Muhammad Xavofiyi bosh mudarris etib tayinlaganini tarixiy manbalardan yaxshi bilamiz.

Ilmiy tadqiqotchilar Mirzo Ulugʻbek ilmiy merosi va u asos solgan akademiyaning faqat astronomik jihatlariga koʻproq urgʻu beradi. Vaholanki, allomaning ilmiy merosi va akademiyasining ilmiy tadqiqotlari faoliyati zamidra falsafa, etika va mantiq ilmlari muhim mavqega ega hisoblanadi. Shuning uchun Samarqand akademiyasi nafaqat astronomiya va aniq fanlar, balki falsafiy-mantiqiy institut ham hisoblanadi. Ulugʻbek akademiyasidagi barcha tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar, kashfiyotlar falsafa va mantiq

ilmlari qonuniyatlari asosida amalga oshirilgan. Ammo bu haqda hali-hanuz nafaqat darsliklar, allomaga oid koʻplab risolalarda ham ilmiy maʼlumotlar mavjud emas.

Bu borada olim M.Olloyorov oʻzining “Mirzo Ulugʻbekning munajjimlik maktabining falsafiy-mantiqiy asoslari” maqolasida shunday yozadi: “Falsafa va mantiq qayd etilgan fanlar yoʻnalishida olib borilgan fundamental tadqiqotlarda bilish metodi – usuli boʻlib xizmat qilgan. Shunga koʻra, ana shu ikkala fan rivojiga katta eʼtibor beriladi va buning natijasi oʻlaroq, Ulugʻbek akademiyasi qoshida falsafa-mantiq maktabi yuzaga keladi. Ammo mavjud ilmiy adabiyotlarda ushbu maktabning shakllanishi, uning vakillari haqida deyarli fikr bildirilmaydi va bu borada tadqiqot ishlari olib borilmagan”.

M.Olloyorov fikrining isboti sifatida Mirzo Ulugʻbekning mantiqqa oid qarashlarini koʻrsatib oʻtadi: “Agar Ulugʻbekning asarlari, xususan, «Ziji Koʻragoniy» asari tahlil qilinib qaraladigan boʻlsa, uning qatʼiy mantiqiy metod-usullarga asoslangan holda yozilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Fikrimizning dalili sifatida uning ana shu asaridan birgina xulosaviy muhokama (hukm)ni



olib qaraylik: «Agar haqiqatan Yerning quyoshga yuzma-yuz boʻlib turishi kechasi yoki kunning ikkinchi yarmida, aniqrogʻi 2 soat-u 20 daqiqa sodir boʻlsa, shuningdek, yuzma-yuz boʻlish gradusi 120, 281 dan kam boʻlmasa, unda quyosh tutilishi roʻy beradi».

Mirzo Ulugʻbek va uning akademiyasi ilmiy yutugʻining yana biri «Ziji Jadidi Koʻragoniy» asaridir. Uni falsafiy-ilmii nuqtai nazardan tahlil qilsak, unda ham biz bugun oʻrganayotgan sinergetik metodologiya asoslari va gʻoyalari iligʻashimiz mumkin. Mutafakkir oʻz zamonasida rivojlangan texnik vositalarning yoʻqligiga qaramay, 1118 ta yulduzning joylashishi haqidagi «Ziji Jadidi Koʻragoniy» asarini yaratdi. Yulduzlarning maxsus katalogini tuzdi.

Olamni yaxlit tarzda kuzatish, uning matematik va astronomik qonuniyatlarini anglash, Quyosh, Oy, Yerning harakatlariga qarab, uning xususiyatlarini oʻrganish orqali «Ziji Koʻragoniy» asaridan tashqari, Ulugʻbek «Bir darajaning sinusini aniqlash haqida risola» asarini yaratib, aniq va ijtimoiy fanlarni rivojlantirishga hissa qoʻshdi.

Mirzo Ulugʻbek qomusiy olim hisoblanib, u asos solgan akademiya salohiyati va taʼsir etishi jihatidan nafaqat Sharq, balki Gʻarbda ilm-fan rivojlanishiga xizmat qilgan.

Bahodir RAHMONOV,
falsafa fanlari boʻyicha falsafa doktori.

↓ “Jizzax haqiqati” va “Djizakskaya pravda” gazetalarini tashkil etilganligining 50 yilligi oldidan

1974-yilning boshi edi. Narpay tumani “Pax-takor ovozi” (hozirgi “Navqiron Narpay”) gazetasida masʼul kotib vazifasida ishlab yurardim. Bir kuni ustozim – gazeta muharririning oʻrinbosari Renat Rahimov yangi tuzilgan Jizzax viloyatida viloyat gazetasi tashkil qilina-yotganligi, unga Samarqanddan ijodiy xodimlar jalb etilayotgani, ushbu gazetada ishlash uchun mening nomzodim ham koʻrsatilganligini aytib qoldi. Pirovardida, gazetaning bosh muharririga “Zarafshon” (oʻsha paytdagi “Lenin yoʻli”) gazetasi muharririning oʻrinbosari Oʻktam Javlonov tayinlanganligini taʼkidladi.

“Biz Samarqanddanmiz!” yoxud hamkor, hamnafas va hamjihat boʻlib

Oradan koʻp oʻtmay, Oʻktam Javlonov boshchiligidagi Abdurashid Abdurahmonov, Abulfayz Barotov, Sulaymon Husainov, Joʻraqul Bahromov, Tugalboy Muzaffarov, Tohir Norqulov, Anvar Joʻraboymovdan iborat biz, samarqandlik jurnalistlar birin-ketin Jizzax gazetasida ish boshladik.

Bizga shahar bozori yaqinidagi pastqamgina bir eski binoni ajratib berishdi. Homiy va mutasaddi tashkilotlar yordamida bu imoratni oʻzimizga moslab, taʼmirlab va jihozlab oldik.

Shunday qilib, yangi gazetaning dastlabki sonlari uchun materiallar tayyorlashni boshlab yubordik. Bunda ayniqsa, tajribali jurnalist, mohir muharrir Oʻktam akaning tajribasi qoʻl keldi. U har bir xodim bilan yaklama-yakka suhbat oʻtkazib, ularning bilimi, qiziqish va qobiliyatiga qarab, boʻlimlarga birkitdi. Xolboʻta Xudoyorov muharrir oʻrinbosari boʻldi. Abdurashid Abdurahmonov masʼul kotib, Tugalboy Muzaffarov uning oʻrinbosari etib tayinlandi. Nurali Qobul va meni sanoat va qurilish boʻlimiga, Sulton Poʻlatov va Bahor Xolbekovani adabiyot va sanʼat, Abdurakarim Sharipov va Sulaymon Husainovni qishloq xoʻjaligi, Mamatqul Ernazarovni propaganda, Saidmurod Norboyevni partiya turmushi, Abdulla Rahmonqulovni axborot boʻlimiga jalb etdi.

Darvoqe, jurnalist uchun boradigan obyektning maqola qahramonlari, tashkilot, korxona va muassasa rahbarlari bilan uchrashib, ular bilan suhbatlashishning muammosi yoʻq. Negaki, bu uning vazifasi. Shuning uchun ham biz bu borada hech qanday toʻsiqqa duch kelganimiz yoʻq.

Oʻktam Javlonov koʻpincha “Gazetaga bersa ham, bermasa ham boʻlaveradigan maqola yozishga urin-mang. Odamlar qiziqib oʻqiydigan, ular kutayotgan, xalqqa foydasi tegadigan maqolalarni, muammolarni koʻtarib chiqishga harakat qiling”, deya taʼkidladi. Shuning uchun ham gazetaning har bir soni oldindan rejalashtirib olinardi. Gazeta chiqqandan soʻng esa unda yoritilgan materiallar atroficla muhokama qilinib, yutuq va kamchiliklari sharhlab berilardi.

Gazetani bosib chiqarish borasida muammolar koʻp edi. Gazeta tuman bosmaxonasida bosilar, deyarli barcha ishlar qoʻl kuchi bilan bajarilardi. Dastgohlar ancha eskirib ketgandi. Buning ustiga ular A-2 bichim-dagi gazetani bosishga moʻljallanmagandi. Bosmaxona ishchilarining ham malakalari kam boʻlganligi tufayli matnlarni terish, sahiflash, xatolarni tuzatish, gazetani bosib chiqarishda qiyinchiliklar yuzaga kelardi. Oqibat-da gazetani tayyorlash jarayoni baʼzan ikki-uch kungacha choʻzilib ketardi.

Biroq shunga qaramasdan, gazetaning har bir sonini nafaqat gazetxonlar, balki biz, ijodiy xodimlar ham in-tiqlik bilan kutardik.

Viloyat yangi tashkil boʻlganligi tufayli bu yerga yangidan ishga kelganlar uchun turarjoy masalasi



murakkab edi. Oʻktam aka buning ham yoʻlini topdi. Uning saʼy-harakati bilan bizga Jizzax pedagogika bilim yurtining talabalar yotoqxonasiga joylashtirishdi. Nega-ki, biz, bir guruh samarqandliklar va Jizzax viloyatining markazga uzoq tumanlaridan kelganlar uchun vaqtin-cha turarjoy juda zarur edi. Biz bu yerga oilaviy koʻchib kelmagandik. Qolaversa, ishlash uchun hali sinovda edik. Shu tariqa bizning yangi viloyatdagi musofirona hayotimiz boshlangandi.

Ishlar izga tushib ketgach, jurnalistlar birin-ketin oilalarini Jizzaxga koʻchirib kela boshladi. Shu jum-ladan, kamina ham Jizzax yogʻ-pishloq zavodi direktori Isom Gʻulomovning saxovati bilan korxona mahsulot-larini tashishga moʻljallangan mashinasida Narpayga yoʻl oldik. Roʻzgʻor anjomlarini ortib, olti oylik oʻgʻlimiz Anvarjonni beshikka belab, uchalamiz Jizzaxga koʻchib keldik. Shahar markazidan xonadonlarning biridan ija-raga uy topib, yashay boshladik. Oʻgʻilchamizga qarash uchun enaga topilgach, turmush oʻrtogʻim - jurnalist Oyshirin yangi tashkil etilgan viloyat teleradiokompani-yasiga ishga oʻtdi.

Oila bagʻrida yashab, muharririyatda faoliyat koʻrsatgan jurnalistlarning ijodiy samaradorligi yanada oshdi. Gazeta yosh boʻlsa ham mazmundorligi jihatidan respublika viloyatlari orasidagi nufuzli nashrlardan biri-ga, navqiron vohaning chinakam koʻzgusiga aylandi.

Xizmat yuzasidan safarda boʻlganimizda ayrimlar suhbat davomida qayerlik ekanimizni soʻrab qolishar-di. “Samarqandlikmiz” derdik magʻrur. Bu maqtanish emas, aksincha, matbuot fidoyisi sifatida yangi tashkil etilgan gazetani oyoqqa turgʻazishda jizzaxlik hamkas-blarimizga astoydil yordam berish, ularga kamarbasta boʻlish uchun bu yerga kelganimizdan faxrlanish hissi edi. Biz jizzaxlik hamkasblarimiz bilan hamkoru hamna-fas edik.

Oʻsha voqealarni eslasam, “Jizzax haqiqati” va “Djizakskaya pravda” gazetalarining dastlabki soni chiqqaniga 50 yil toʻlgan kunlarda ushbu gazetani murakkab vaziyatda ommaga yetkazishda, uni oʻqishli va sermazmun qilib chiqarish uchun baʼzi tunlari hatto uyqudan kechib, kuch-gʻayratlarini, bilim va qobiliyat-larini ayamagan fidokor va hozirjavob hamkasblarim-izni qoʻmsayman. Afsuski, ularning koʻpchiligi bugun oramizda yoʻq. Biroq ularning yorqin satrlar bitilgan axborot, maqola, lavha, reportaj va ocherklari gazeta sahifalariga muhrlanib qolgan.

Ayni paytda “Jizzax haqiqati” va “Djizakskaya prav-da” gazetalarini yanada yashnayotgan va yosharayotgan vohaning chinakam koʻzgusiga aylanganligi, ularda bu-gungi kunda ham matbuotimizning bilimdon va fidokor insonlari xizmat qilayotganligi matbuot faxriysi sifatida meni benihoya quvontiradi.

Rizo XUDOYQULOV,
Oʻzbekiston Respublikasida xizmat
koʻrsatgan jurnalist.



Yutuqlar koʻp, muammolar ham oz emas

↓ 27 mart – Xalqaro teatr kuni

Inson maʼnaviyatini yuksaltirish va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda teatr sanʼatining oʻrni katta. Respublika-mizdagi 40 ga yaqin professional davlat teatri ana shu maqsad uchun xizmat qilmoqda. Ular orasida viloyat-imizdagi musiqali, rus drama, qoʻgʻir-choq va drama teatrlarning ham oʻz oʻrni bor.

Xususan, viloyat musiqali teatriga 1914-yil 15-yanvarda Mahmudxoʻja Behbudiyning “Padarkush” spektakli bilan tamal toshi qoʻyilgan boʻlib, 110 yillik tarixga ega. Teatrda turli mavzu va janrlardagi tarixiy, milliy, zamonaviy va jahon klassik asarlari sahnalashtirilib, to-moshabinlar eʼtiboriga havola etilmoqda.

Oʻtgan yil teatrda tashkil etilgan 120 dan ortiq spektakl namoyishiga 40 ming-dan ziyod tomoshabin tashrif buyurdi.

“Mirzo Ulugʻbek”, “Aka-ukalar”, “Oro-mijonimsan mani”, “Imon”, “Samarqand sayqali”, “Edip”, “Koʻchki”, “Samarqa-ndnoma”, “Tanho yulduz”, “Padarkush”, “Tazarru”, “Ishq boʻstoni”, “Maysaraning ishi”, “Bahodir Yalangʻoʻsh”, “Layli va Majnun” kabi yirik asarlar sahnalashtirildi.

Joriy yil boshida “Yangi Oʻzbekiston yulduzlari” madaniyat va sanʼat milliy mu-kofoti uchun oʻtkazilgan tanlovda viloyat musiqali drama teatrlarining “Layli va Ma-jnun” spektakli “Yilning eng yaxshi spek-takli” deb eʼtirof etildi. Shuningdek, «Layli va Majnun» spektaklida Layli rolini ijro etgan teatr aktrisasi Shohsanamxon Ob-loqulova «Yilning eng yaxshi teatr aktrisa-si» nominatsiyasi gʻolibi boʻldi. Preziden-timizning joriy yil 5-mart kuni imzolagan farmoni bilan teatrimizning ustoz aktyori, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artist

Raʼno Joʻraqulova «Mehnat shuhrati» ordeni bilan taqdirlandi.

Keyingi yillarda teatrlarning xorijiy davlatlar bilan xalqaro hamkorlik aloqalari ham ortib bormoqda. Soʻnggi uch yilda teatrimiz jamoasi 10 dan ortiq xalqaro gastrol safariga boʻldi. Spektakllarimizni jahon sahnasiga olib chiqish bilan dunyo ahliga milliy sanʼatimiz, tarixiy shaxslar, buyuk bobokalonlarimiz haqida koʻproq maʼlumot berish, ularning yurtimizdagi tarixiy obidalariga boʻlgan qiziqishlarini oshirish, shuningdek, tajriba almashish-ni maqsad qilganmiz. Jumladan, joriy yilda Turkiya, Angliya, Belarus, Qozogʻis-ton mamlakatlariga festivallarga borish hamda Qashqadaryo, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida teatr tomoshalari namoyish etish, tanlovlarda ishtirok etish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, teatri-

mizning 110 yilligiga bagʻishlab “Gamlet”, “Oqqush parvozi”, “Odamga yordam be-ring yoxud osmonning egasi bor” hamda A.Chexov asarlaridan yangi spektakllar sahnalashtiramiz.

Albatta, yutuqlar bilan birga tizimda hal qilinishi kerak boʻlgan muammolar ham yoʻq emas. Birinchidan, keyingi paytda shtatlar qisqarib ketishi natijasida teatrd me-nejer, marketolog, hamshira vazifasini bajaruvchilar yoʻq, lekin ularga ehtiyoj bor. Ikkinchidan, tuman va shaharlarga yoki boshqa viloyatlarga dekoratsiyalar bilan borish, tanlovlarda ishtirok etish uchun maxsus mashina berilmagan. Uchinchidan, viloyat musiqali teatrida cholgʻu asboblari va boshqa uskunalar yetishmaydi.

Shu kunlarda aktyorlarimiz tomonidan sahnalashtirilgan 24 ta spektakl muxlislar

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 690 nusxada chop etildi. Buyurtma 160. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA EʼLONLAR: (66) 233-91-56

BOʻLIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulugʻ Tursunov koʻchasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter boʻlimida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

Gʻ.HASANOV.

Navbatchi:

A.BAROTOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga oʻtish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda